

This is not registered version of TotalDocConverter

Atrof zimiston. Yuragim bejo!
Tish-sh! Qulq soling-a, orqamdan pisib kelayotgan ajinalar shivir-shivir qilishyapti. Kaminani bo'g'izlamoqchimikin ular? Ana, eshityapsizmi?

Yo'q. Baqaterakning barglari shildiryapti shekilli. Shabada esib turibdi-da.

Atrof zimiston. Yuragim bejo!

Yo alhazar! Bunisi qanaqa maxluq endi? Hezalaklarga o'xshab kulyapti. Tishi arrasimon bo'lsa-ya...

Uf-f, shundan qo'rqib o'tiribman-a. Boyo'g'li ekan. Uchib ketdi yaramas.

Atrof zimiston. Yuragim taka-puka!!

A-a-a!

Nega baqiryapman? To'g'ri, baqirish kerak. So'qmoqning qoq o'rtasida bir ko'zli odamyutar turibdi. Ko'zlarining yonishini qarang.

La ilaha illollo! La ilaha...

Shoshmang-chi. Bular tillaqo'ng'izlarmi deyman? Ha-ya! To'planib olishibdi... Tfu!

Atrof zimiston. Yuragim pachava!!!

Erkakchasiiga tan oladigan bo'lsam, qorong'ilikni bolalikdan jinim suymaydi. Lekin, boshga tushgandan keyin...

Gap shundaki, rahbarlikka tayinlandim-u, g'alvalardan asabim taranglashib, yuragim g'ijimlaydigan bo'pqoldi. Vrachga borgan edim, u kechalari sokin joylarda sayr qilib turishimni maslahat berdi. Mana, davolanishni boshlab yubordim.

1978